

MULTIMODAL LOGISTIKA TIZIMI VA SAVDO-LOGISTIKA KLASTERLARINING BOZOR INFRATUZILMASIDAGI AHAMIYATI

Toshkent kimyo texnologiya instituti
Sanoat muhandisligi va menejmenti fakulteti

2-kurs 24/59 logistika guruh talabasi

G‘afurova Sorabibi Kenjabek qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada multimodal logistika tizimining mazmuni, logistika markazlarini joylashtirish omillari hamda savdo-logistika klasterlarining bozor infratuzilmasi rivojlanishidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, logistika tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi iqtisodiy samaradorlikka qanday ta‘sir ko‘rsatishi haqida fikr yuritiladi. Logistika markazlarini joylashtirishda transport yo‘llari, bozor talabi, infratuzilma va hududiy imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: multimodal logistika, logistika markazi, bozor infratuzilmasi, transport tizimi, savdo-logistika klasteri, iqtisodiy samaradorlik

Kirish

Hozirgi kunda iqtisodiyotning rivojlanishida logistika tizimlari muhim o‘rin egallaydi. Mahsulotlarni ishlab chiqarishdan tortib iste‘molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayon samarali tashkil etilsa, bu nafaqat korxonaga, balki butun iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa transport tizimining rivojlanishi va logistika xizmatlarining kengayishi zamonaviy iqtisodiyotda katta ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda multimodal logistika tizimlariga qiziqish ortib bormoqda. Bu tizim turli transport turlaridan foydalanib yuklarni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yetkazib berishni anglatadi. Bunday yondashuv yuk tashish jarayonini tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Multimodal logistika tizimi

Multimodal logistika tizimi yuklarni tashishda bir nechta transport turlaridan foydalanishga asoslanadi. Masalan, mahsulotlar avval temiryo‘l orqali tashilishi, keyin avtomobil transporti yordamida manzilga yetkazilishi mumkin. Ba’zi hollarda dengiz yoki havo transportidan ham foydalaniladi.

Bunday tizimning asosiy afzalligi shundaki, u transport jarayonini moslashuvchan qiladi. Turli transport vositalaridan foydalanish natijasida yuklarni tezroq yetkazish va logistika xarajatlarini kamaytirish mumkin bo‘ladi. Shu sababli multimodal logistika tizimi xalqaro savdo jarayonlarida ham keng qo‘llanilmoqda.

Logistika markazlarini joylashtirish omillari

Logistika tizimining samarali ishlashi ko‘p jihatdan logistika markazlarining to‘g‘ri joylashtirilishiga bog‘liq. Logistika markazlari yuklarni qabul qilish, saqlash, qayta taqsimlash va yetkazib berish jarayonlarini tashkil etadigan muhim infratuzilma hisoblanadi.

Logistika markazlarini joylashtirishda bir nechta omillar hisobga olinadi. Birinchi navbatda transport yo‘llariga yaqinlik muhim hisoblanadi. Temiryo‘l, avtomobil yo‘llari yoki aeroportlarga yaqin hududlarda logistika markazlarini qurish yuk tashishni ancha osonlashtiradi.

Shuningdek, bozor talabi ham muhim omillardan biridir. Aholi va sanoat korxonalarini ko‘p joylashgan hududlarda logistika markazlarini barpo etish mahsulotlarni tezroq yetkazib berishga yordam beradi.

Bozor infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi

Bozor infratuzilmasi iqtisodiy faoliyatning muhim qismi hisoblanadi. Transport, logistika markazlari, omborlar va savdo tarmoqlari infratuzilmaning asosiy elementlari hisoblanadi.

Agar infratuzilma yaxshi rivojlangan bo‘lsa, mahsulotlarni tashish jarayoni tezlashadi va xarajatlar kamayadi. Natijada korxonalar samaraliroq ishlaydi va bozor faoliyati yanada rivojlanadi.

Logistika tizimining rivojlanishi ayniqsa eksport va import jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Samarali logistika tizimi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Savdo-logistika klasterlari

So‘nggi yillarda savdo-logistika klasterlari tushunchasi ko‘proq qo‘llanilmoqda. Klaster deganda bir hududda o‘zaro bog‘liq korxonalar va tashkilotlarning jamlanishi tushuniladi.

Savdo-logistika klasterlarida ishlab chiqaruvchilar, logistika kompaniyalari, transport tashkilotlari va savdo korxonalarini bir hududda faoliyat yuritadi. Bu esa ular o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi va logistika jarayonlarini yanada samarali qiladi.

Bunday klasterlar orqali mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va yetkazib berish jarayonlari yanada tez amalga oshiriladi. Natijada bozor faoliyati rivojlanadi va iqtisodiy samaradorlik oshib boradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, multimodal logistika tizimi zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Turli transport turlaridan foydalanish yuk tashish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shuningdek, logistika markazlarini to‘g‘ri joylashtirish va savdo-logistika klasterlarini rivojlantirish bozor infratuzilmasining samarali ishlashiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Kelajakda logistika tizimlarini yanada takomillashtirish va infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o‘rinish uchun muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.